

## **“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJNING ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI SIYOSATI**

### **1. UMUMIY QOIDALAR**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - “NKMK” AJ, Kompaniya) geologiya-qidiruv ishlari va tog‘ jinslarini qazib olishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan ishlab chiqarish faoliyatining barcha bosqichlarida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratadi.

Kompaniya o‘z faoliyatini amalga oshirishda atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, bioxilma-xillikni saqlashga, chiqindilarga mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lishga intiladi, bu esa mavjud hududlarda qulay ekologik vaziyatni saqlab qolishga yordam beradi.

Ushbu Siyosat “NKMK” AJning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlarini aks ettiradi, Kompaniyaning boshqa siyosatlarida bayon etilgan tamoyillar bilan birgalikda “NKMK” AJning ekologik javobgarligining yagona tamoyillarini shakllantiradi.

### **2. STRATEGIK MAQSADLAR**

Kompaniyaning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi maqsadi ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va atrof-muhitga salbiy ta‘sirni minimallashtirishdir. Kompaniya o‘z sa‘y-harakatlarini quyidagi maqsadlarga erishishga qaratmoqda:

- qonun hujjatlariga, xalqaro normalar va standartlarga qat‘iy rioya qilish;
- atrof-muhit ifloslanishining oldini olish;
- tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish;
- ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish;
- atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan avariya va texnogen hodisalarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradigan texnologik, texnik va tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish;
- bioxilma-xillikni saqlash;
- atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va tabiiy resurslarni asrash madaniyatini shakllantirish.

### **3. QO‘LLANISH SOHASI**

Ushbu Siyosat “NKMK” AJning barcha xodimlari, pudrat tashkilotlari va biznes hamkorlari tomonidan Kompaniya hududida ham, uning manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilayotgan faoliyat doirasida ham ishlab chiqarish operatsiyalarini bajarishda majburiy hisoblanadi.

Siyosat qoidalari Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan barcha biznes jarayonlari va faoliyat turlariga istisnosiz qo‘llaniladi.

### **4. NORMATIV-HUQUQIY BAZA**

Atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillarini qo‘llab-quvvatlash yondashuvida “NKMK” AJ quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi;
- Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya (CBD);
- Xavfli chiqindilarning chegaralar oralig‘ida tashilishi va ularni yo‘q qilishni nazorat qilish bo‘yicha Bazel konvensiyasi;
- Atrof-muhitga ta‘sirni baholash bo‘yicha chegaralararo kontekstdagi konvensiya;
- Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) faoliyati standartlari;

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning ISO 14001:2015 standarti — “Ekologik menejment tizimlari. Talablar va qo‘llash bo‘yicha qo‘llanma”;

BMT Global kelishuvi (UNGC) tamoyillari;

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD)ning axloqiy biznes yuritish bo‘yicha yo‘llanma tamoyillari;

Xalqaro konchilik va metallurgiya kengashi (ICMM)ning mas‘uliyatli konchilik faoliyati bo‘yicha tamoyillari;

Oltin qazib chiqarishda mas‘uliyatli yondashuv tamoyillari (RGMP).

## 5. ASOSIY TAMOYILLAR

**Qonunchilik talablari va xalqaro me‘yorlarga rioya qilish:** Kompaniya amaldagi ekologik qonunchilik va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi tegishli xalqaro kelishuvlar va standartlarga rioya qilinishini ta‘minlaydi.

**Ifloslanishning oldini olish va salbiy ta‘sirni kamaytirish:** atmosfera havosi, suv resurslari, tuproq qoplami ifloslanishining oldini olish va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan profilaktika choralari va texnologiyalarini joriy etish.

**Ekologik xavflarni boshqarish:** ehtimoliy hodisalarning sabablarini tahlil qilish va bartaraf etish, shuningdek, ekologik me‘yorlarning bajarilishi bo‘yicha muntazam tekshiruvlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

**Mas‘uliyat:** ishlab chiqarishda ekologik me‘yorlarga rioya etilishini ta‘minlashda barcha darajadagi rahbariyatning faol ishtiroki.

**Jarayonlarga integratsiya qilish:** ekologik xavfsizlik - har bir biznes jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ekologik omillarni boshqarish rejalashtirish va ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak.

**Tahlil va takomillashtirish:** muntazam monitoring, audit va tuzatish choralari orqali atrof-muhitni boshqarish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish.

**Shaffoflikni ta‘minlash va manfaatdor tomonlarni xabardor qilish:** jamoatchilik, hokimiyat organlari, hamkorlar va xodimlar bilan atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha ochiq muloqotni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, belgilangan ichki tartibda tegishli ekologik ma‘lumotlarni muntazam taqdim etish.

**Xodimlarning ekologik madaniyati va malakasini oshirish:** tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish uchun xodimlarni atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘qitish va xabardorligini oshirish.

**Mavjud hududlarning barqaror ekologik rivojlanishiga ko‘maklashish:** loyihalar hayotiy davrining barcha bosqichlarida iqtisodiy rivojlanish va tabiiy salohiyatni saqlash o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash maqsadida Kompaniya faoliyat yuritayotgan hududlar va jamoalarning ijtimoiy-ekologik manfaatlari hisobga olinadi.

## 6. VAZIFALAR VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

### 6.1. “NKMK” AJning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vazifalari

“NKMK” AJ atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi siyosat prinsiplari bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha o‘z oldiga quyidagi vazifa va majburiyatlarni qo‘yadi:

faoliyat samaradorligini oshirish va ekologik ko‘rsatkichlarni yaxshilashning tizimli va uzluksiz jarayonini ta‘minlaydigan xalqaro standartlarga muvofiq kompleks ekologik menejment tizimini joriy etish, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari bajarilishining ko‘p bosqichli monitoringini va muntazam ichki tekshiruvlarini amalga oshirish;

yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik xavf-xatarlarni muntazam baholab borish va salbiy oqibatlarining oldini olish va/yoki ularni minimallashtirish maqsadida ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ekologik talablarning biznes jarayonlariga tizimli integratsiyasini amalga oshirish;

atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha maqsadlarni belgilash va ularga erishish natijalarini kuzatib borish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun zamonaviy va innovatsion texnologiyalar hamda uskunalarini joriy etish;

favqulodda vaziyatlarga tayyor turish va ekologik hodisalarga javob berish rejalarini amalga oshirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida, shu jumladan ma'lumotlarni Kompaniyaning nomoliyaviy hisobotlariga kiritish orqali shaffof hisobot tizimini ta'minlash;

ekologik madaniyatni rivojlantirish va xodimlarning ekologik qonunchilik talablari va Kompaniyaning tabiatni muhofaza qilish tashabbuslari to'g'risida xabardorligini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil etish.

## **6.2. Ekologik faoliyatning asosiy yo'nalishlari**

“NKMK” AJ ekologik siyosatni quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshiradi:

### **Atmosfera havosini muhofaza qilish va iqlim o'zgarishini boshqarish:**

Chiqindilarni nazorat qilish va kamaytirish;

Iqlim xavflarini boshqarish bo'yicha harakatlarni baholash va amalga oshirish;

Zamonaviy tozalash texnologiyalarini joriy etish;

Havo sifati monitoringi.

### **Suv ta'minoti va suv resurslarini muhofaza qilish:**

Suv ta'minotining yopiq sikllarini joriy etish;

Oqova suvlarni oqizishni nazorat qilish;

Suv sarfini kamaytirish.

### **Chiqindilarni boshqarish:**

Chiqindilar hosil bo'lishini minimallashtirish;

Resurslardan qayta foydalanish va ularni qayta ishlash;

Xavfli chiqindilar bilan xavfsiz ishlash.

### **Yerdan foydalanish va bioxilma-xillik:**

Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish;

Ekotizimlarni saqlash;

Tabiatni muhofaza qilish va o'rmonlarni qayta tiklash dasturlarida ishtirok etish.

## **7. JAVOBGARLIK**

“NKMK” AJ rahbariyati ushbu Siyosat qoidalarining joriy etilishi va ularga rioya etilishi uchun mas'uldir, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi maqsadlarga erishish uchun zarur resurslarni taqdim etadi. Kompaniya rahbariyati atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik masalalarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun mas'uldir.

Ushbu Siyosat qoidalarining bajarilishini nazorat qilish “NKMK” AJ Bosh muhandisi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu Siyosat tamoyillarini amalga oshirish, vazifalarni bajarish va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini nazorat qilish atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

Kompaniya va ishlab chiqarish bo'linmalari rahbariyati ekologik menejment tizimining holatini muhokama qilish uchun muntazam uchrashuvlar o'tkazadi va ushbu Siyosat qoidalari, amaldagi qonunchilik talablari, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik xavfsizligi sohasidagi ichki me'yoriy hujjatlarning bajarilishini nazorat qiladi.

Mas'ul shaxslar ushbu siyosatga rioya etilishini muntazam ravishda kuzatib boradilar va manfaatdor tomonlar oldida hisobot beradilar.

Atrof-muhitni muhofaza qilish holati to'g'risidagi hisobot muntazam korporativ hisobotlarga kiritilgan.

## **8. YAKUNIY QOIDALAR**

Mazkur Siyosat muntazam ravishda (uch yilda kamida bir marta) qayta ko'rib chiqilishi lozim, shuningdek quyidagi hollarda:

amaldagi qonunchilik o'zgargani sababli;

Kompaniyaning operatsion faoliyatida sezilarli o'zgarishlar bo'lganda;

eng yaxshi amaliyotlarga mos kelish maqsadida.

Ushbu Siyosat "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi - Bosh direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanganidan boshlab kuchga kiradi.

Agar ushbu Siyosatning biror-bir bandlari biron-bir sababga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan majburiy talablarga (imperativ me'yorlarga) zid bo'lsa, bunday bandlar ushbu Siyosatga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar o'z kuchini yo'qotadi, bunday hollarda Kompaniya O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi me'yorlariga amal qiladi.

Mazkur siyosatning yangilanishini nazorat qilish "NKMK" AJ Transformatsiya boshqarmasining Barqaror rivojlanish va atrof-muhit (ESG) bo'limiga yuklatiladi.